O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

O'zbek tili va adabiyotini o'qitishning
zamonaviy texnologiyasi

MA’RUZALAR MATNI

Nukus-2012

Kirish

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

(«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan)

ZPT ning mohiyati

Reja

1. Fanning maqsad va vazifalari
2. Ona tili va adabiyoti o’qitishning zamonaviy muammolari
3. Ona tili va adabiyoti ta’limida ZPT ning o’rni va ahamiyati

Adabiyotlar

O’zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqoralik jamiyati qurish yo’lini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta kurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo’lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» uzluksiz ta’lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan isloh qilishga qaratilgan.

Milliy dasturni amalga oshirishda mavjud ta’lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o’zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlar va ijtimoiy tajribalarga, ta’lim jarayonini hamma bosqichlarida, uzluksiz ta’lim tizimi ta’lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg’or-metodik ta’limlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga Fan, texnika, ilg’or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o’qtish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta’minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tamonlama rivojlangan shaxs-fuqaroning tashkil topishini ko’zda tutadi. U ushbu ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta’lim xizmatlarining iste’molchisi, buyurtmachisi sifatida va xuddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi.

SHaxs ta’lim jarayonining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmatlar sohasi faoliyatida bilish va tajribalarni berishda ishtirok etadi. Respublikamizda shaxsga o’zining ijodiy imkoniyattlarini amalga oshirish uchun profesional ta’lim dusturini tanlash huquqini bergan.

Uzluksiz ta’lim tizimida oliy ta’lim alohida o’rin egallaydi. Oliy ta’lim umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-xunar ta’limi asosida uzluksiz ta’lim tizimining

mustaqil turi hisoblanadi va O’zbekiston Respublikasinng «Ta’im to’g’risida»gi va «Kadrlar tayrlash milliy dasturi» qonunlariga binoan amalga oshiriladi.

Ma’ruza-2
Ona tili mashg’ulotlarida xalq maqollari va iboralaridan foydalanish texnologiyasi

Reja

1. **Mashqlar bjraishda xalq maqollari va ibrralaridan foydalanish texnologiyalari**
2. **Xalq maqollari va iboralari asosida matn yaratishga o’rgatish**

Odiljon oyisi, adasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni piSTa-bodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan siyladi. Odiljon mehmonda sho’xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo’l cho’zavermadi. Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni “odobli bola ekan” deyishdi. Odiljon “Odobli – elda aziz” ekanligini bilib oldi.

Bu uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.

4. Mavzu yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish.

— Bugungi maqollarni o’rganish darsi sizga yoqdimi?

— Maqollar bolalar tarbiyasiga ta’sir qiladi deb o’ylaysizmi? qanday ta’sir o’tkazishi mumkin?

— Siz bugun o’zingizga qanday xulosa chiqardingiz?

— O’qigan qaysi maqolimiz sizga ham tegishli?

5. Guruhlar to’plagan ballarni e‘lon qilish. O’quvchilarni rag’batlantirish.

6. Uyga vazifa. Maqollarni ifodali o’qish va yod olish. Darslikdan o’qigan ertaklari mazmuniga mos maqollar topib, daftarga yozib kelish.

Ma’ruza-3
Ona tili darslarida o’yin texnologiyalaridan foydalanish

Reja:

1. Syujetli o’yinlar
2. Rol ijrosi
3. Tadbirkorlik o’yinlari
4. Andozaviy o’yinlar

O’yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi

O’yin olimlar tadqiqotlariga ko’ra mehnat va o’qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta’kidlaricha, o’yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o’zini namoyon qilish, hayotda o’z o’rnini barqaror qilish, o’zini o’zi boshqarish, o’z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O’yin ijtimoiy tajribalarni o’zlashtirish va qayta yaratishga yo’nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o’z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

L.S.Vigodskiy o’yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy burtmalarni o’zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.

A.N.Leontev o’yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo’lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o’yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog’liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o’yin o’ziga xos bo’ladi.

O’yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag’ishlangan bo’ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik
- kommunikativlik
- o’z imkoniyatlarini amalga oshirish
- davolovchilik
- tashxis
- millatlararo muloqat
- ijtimoiylashuv

Tadqiqotchilar o’yin xususiyatlari ishlab chiqqanlar. O’yinlarning muhim qirralari S.A.SHmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlarga ko’ra, faoliyat jarayonining o’zidan bahra olish uchun qo’llanadi.

O’yin ijodiyligi bilan ajralib turadi U mumkinqadar boy, faol xarakterga-«ijod maydoni»ga ega bo’ladi.

O’yin uchun hissiy ko’tarinkilik hosdir. U o’zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo’ladi.

O’yinning o’yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko’zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo’lishini ko’rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o’yinga faoliyat, jaran va o’qitish metodi sifatida qaraydilar.

O’yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub’ekt sifatida o’z imkoniyatlarini to’la amalga oshiradi.

O’yinli faoliyatni motivasiyalash o’yin xarakterining musobalaqalashish shartlari, shaxsning o’zini namoyon qila olishi, o’z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o’yin tuzilmasi (G.K.Selevko ta’biricha) quyidagilarni o’zishga qamrab oladi:

- uynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo’lgan o’yin harakatlari:
- predmetlarni, ya’ni haqiqiy narsalarni shartli, o’yin narsalari o’rnida qo’llash;
- o’yinda ishtirok etuvchilarning real o’zaro munosabatlari;
- o’yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun)-ijro sohasi

O’yindan tushunchalar, mavzu va hatto o’quv predmeti bo’lini o’zlashtirishda o’qitish metodi va mustaqil sifatida foydalaniladi.

O’yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O’yinlar turli maqsadlarga yo’naltirilgan bo’ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo’ladi.

O’yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik vadunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlik, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo’ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o’yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o’xshashini topish, faraz xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal echimni topa olish, o’quv faoliyatini motivasiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o’yinlari jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko’nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o’z-o’zini boshqarish, muloqatga o’rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o’yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o’yinlar «o’yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Pedagogik o’yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo’yiladi.

Pedagogik o’yinlar asosida talabalarni o’quv faoliyatiga yo’llovchi o’yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik o’yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo’nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o’yinlar quyidagi asosiy yo’nalishlarda bo’ladi:

- didaktik maqsad o’yinli vazifa shaklida qo’yiladi;
- o’quv faoliyati o’yin qoidalariga bo’ysunadi;
- o’quv materialidan o’yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o’quv jarayoniga didaktik vazifa o’yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o’yin natijalari bilan bog’lanadi.

Pedagogik o’yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o’yin metodikasi, soha hususiyati, o’yin muhiti bo’yicha tasnif qilingan.

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o’yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o’yinlari nazariyasi umuman boshqa o’yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog’langan.

Tadbirkorlik o’yinlarini mashhur psixologlar L.S.Vigodskiy, A.N.Leontev, P.YA.Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o’yinlari o’z xarakteriga ko’ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o’yinlari bilish va o’qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o’yinlariga taqlidiy o’yinlar bilishning

vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

A.A.Verbiskiy tadbirkorlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. SHu tufayli tadbirkorlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid va aloqa yordamida beriladi.

A.A.Verbiskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, ya'ni talabani bir etakchi faoliyat tipi (o'quv) dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitasion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materiali mazmunining izchilligi;
- o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o'yinning ta'limiy va tarkibiy samaradorligi yig'indisi;
- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishga o'tishni ta'minlashi;

Ma'ruza-4
O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishda ZPT dan foydalanish

1. **O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda zamonaviy texnologiyalar**
2. **O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda zamonaviy texnologiyalar**

Nutq - o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina kolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. SHuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy operasiyalarga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi».

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirii uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha predmetlardan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

SHunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib etiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrn shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Uquvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqnn to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

Uqish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi; bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. SHe'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, so'z yasovchi, shakl yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap, turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishga o'rganadilar: 5 soni 3 sonidan katta (5 > 3) yoki uch soni besh sonidan kichik (3 < 5); bitta o'nlikka ikkita o'nlik va 5 ta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va 5 ta birlik hosil bo'ladi (10 Q 25 k 35) va hokazo.

Masala echish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan *bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng* kabi so'zlarning yangi ma'nosini bilib oladilar; *...bizga ma'lum, masalada so'ralyapti* kabi so'z birikmalarini ishlatishga o'rganadilar.

Matematika darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o's-tirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani echishda savolga to'liq javob berishga, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bular, o'z navbatida, o'quvchilar nutqini boyitish va faollashtirish vositasi hisoblanadi.

Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala echish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida va tarbiyaviy maqsadda juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida *«Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?»* masalasini tuzadi. Bu masalani echishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani echish uchun aniq izchillikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar.

SHunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lu²atini boyitish, turli xil gap, bog'lannshli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda, o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi. O'qituvchi matematik mazmungagina emas, balki shu mazmunni bolalar nutqida to'g'ri shakllantirishiga ham e'tibor bersa, bu darslarda o'quvchilar egallaydigan bilim haqiqiy va ular nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi. *«Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani echish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida nshlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi».*

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi yordamida guru³laydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilsb olishga imkon beradi va tafakkurni o'stiradi. Tabiat

hodisalari va predmetlarni idrok etish bilan bolalar ongida tabiatshunoslikka oid tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar ta'lim jarayonida yo narsalarni (*daraxt, olma, shaftoli, o'rik, olxo'ri, gul, o't* kabi), yoki ularning belgisini (*mevali, mevasiz; achchiq, nordon, shirin; qizil, oq* kabi), harakatini (*daraxt o'sadi, qush uchadi, bulbul sayraydi* kabi) ifodalovchi so'zlar bilan bog'lanadi.

Mehnat va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya va ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga imkon beradi.

Uquvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga barcha hujjatlarga: husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat uch asosiy omilga bog'liq: *birinchidan, so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, bolalarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit; ikkinchidan, bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil ztilishi; uchinchidan, nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasiga bog'liq.*

Savol va topshiriqlar

1. *O'quvchilar nutqini o'stirish sohasida maktab va o'qituvchi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalarni ayting.*

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan biri nutqining asosiy xususiyatlarini tekshiring va qisqa axborot tayyorlang.

3. P. I. Ivanovning «Umumiy psixologiya» qo'llanmasining (Toshkent, 1967) «Nutq» bobini o'qing va nutq o'stirish metodikasida qanday psixologik ma'lumotlardan foydalanilishini aniqlashga harakat qiling.

Mavzu-5
Ta'lim-tarbiya jarayonini tabaqalashtirish

1. Tabaqalashtirish texnologiyasi
2. Tabaqalashtirish texnologiyasi natijasi

G.K.Selevko tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o'zida bilim darajasi bir xil bo'lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan o'qituvchi ishlaydi. O'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ihtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

O'qitish tizimining qurama texnologiyasi (N.P.Guzik)

«O'qitish tizimining qurama texnologiyasi» saviyasiga va darslarda mavzu bo'yicha davriylikni rivojlantirishga ko'ra sinf ichidagi o'qitishning

tabaqalashtirilishi deb qaraladi. Darslar har bir mavzu bo'yicha ketma-ket joylashgan besh tipdan iborat bo'ladi:

1) mavzuni umumiy tahlil qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
2) ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o'quv materiallarining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko'zda tutgan, tuzilgan seminar mashg'ulotlarlari (bunday darslar uchtadan betshagacha bo'lishi mumkin);
3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhlash) darslari (mavzular bo'yicha sinovlar);
4) Fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo'yicha vazifalarni himoya qilish)
5) Dars-praktikumlar

Keyingi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning saviyalariga ko'ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchilikda: «A», «V», «S» dasturlari ajralib turadi.

Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- muayyan darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi;
- ta'lim oluvchilarning ma'lum darajadagi mustaqilligini ta'minlaydi;

«S» dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta'lim oluvchilar fan bo'yicha o'quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o'zlashtiradilar. «S» dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o'tmasdan oldin har bir o'quvchi bajara olishi lozim.

«V» dasturi mavzuni qo'llash bilan bog'liq masalalarni echish uchun zarur bo'lgan o'quv va aqliy faoliyatining umumiy va o'ziga xos usullari bilan birga egallashni ta'minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo'shimcha ma'lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi, tushunchalarning amal qilish va qo'llanishini ko'rsatib turadi.

«A» dasturi o'quvchilarning bilimlarini to'la anglash, ijodiy qo'llash darajasiga ko'taradi. Bu dasturda ijodyi qo'llash istiqbolli tobora takomillashib boruvchi ma'lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan.

Materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarni erkin tiklash metodikasi qo'llanadi.

Ma'ruza-6
Adabiyot darslarini tashkil etishda o'yin texnologiyasi
Reja:

1. Adabiy ta'limda o'yin texnologiyalarining o'rni va ahamiyati.
2. O'yin turlari va ulardan foydalanish texnologiyasi.

3. O’yin texnologiyalari asosida adabiyot darslarini tashkil etish.

Adabiyotlar:

1. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradoligini oshirish yo’llari. Tuzuvchi: R.Ishmuxammedov. Toshkent, 2003. 3-11-betlar.

2. K.Usmonova. Adabiy ta’limda ilg’or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2004, 3-13-betlar.

3. D.Abdurazzokova. Interfaol usullardan foydalanish. Toshkent, 2005, 3-9-betlar.

4. Elkonin D.B. Psixologiya igro’. Moskva. Pedagogika. 1978.

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o’tkazish, undagi yangi mazmunni o’kuvchilarga to’larok etkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyaning dolzarb talabi bo’lib xizmat kiladi.

O’kituvchilardan ham dars samaradorligi oshiradigan, o’kuvchilar faollligini kuchaytiradigan texnologiyalarni ko’llash talab etilmokda. Bunday talablarga asosan o’kuvchilarda o’zaro rakobatni o’rnatish uchun adabiyot darslarida **o’yin mashg’ulotlaridan** foydalanish maksadga muvofikdir.

CHunki o’yin texnologiyasi o’kuvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo’lgan kizikishni yanada oshiradi. Adabiy ta’limda asosiy faollik o’kituvchining o’zida mujassam bo’lishi kerak. SHundagina o’kuvchilar orasidagi faollikni ta’minlay oladi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda turli xil o’yinlardan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmokda. Bugungi kunda adabiy ta’lim jarayonida ko’llash nihoyatda kulay bo’lgan bir kator o’yinli texnologiyalar yaratilmokda. O’yinli texnologiyalar nafakat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko’nikmalariga aylanishini ta’minlabgina kolmay, balki ta’lim oluvchilarda muayyan axlokiy irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o’z ulushini ko’shadi.

D.B.Elkoninning fikriga ko’ra, “Xuddi shu oddiygina o’yin orkali o’sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba karor topa boshlaydi”[1]. Bir kancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o’yin - bu tarakkiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga karatilgan, undan kelib chikadigan konun-koidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

Zakovat o’yini

Bu o’yinni o’tkazishda dastlab auditoriyani o’yinga moslashtirish lozim bo’ladi. O’yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. YUkori ball olgan o’kuvchilar o’yinda ishtirok etish hukukiga ega bo’ladi. O’yin katnashchilari 6-8 kishidan iborat bo’ladi. Qolgan o’kuvchilar esa o’yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O’yin uchun mo’ljallangan savollar konvertga joylashtirib ko’yiladi. Guruh sardori savolni olib o’kituvchiga beradi. O’kituvchi savolni o’kib eshittiradi. Javobni aniklash uchun bir dakika vakt ajratiladi. Bu vakt orasida o’yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat kilishadi. Bu o’yinni asosan, yukori sinfda o’tkazish tavsiya etiladi.

1

Zakavot o’yinlarida asosan, o’rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga dikkat karatiladi.

9 cinfda Ogahiy hayoti va ijodini o’rganishda bu o’yinni ko’llash va kuyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Savol: SHoir she’rlarida mumtoz adabiyotning kaysi san’at turlaridan foydalangan. Misollar keltiring.

Javob: Ogahiy o’z baytlarida ma’no jihatidan bir-biriga yakin tushunchalarni ko’llab **tanosub** san’tini yaratgan. Masalan:

Ne tong ko’nglum kushi gar etsa maksad oshyonig’a,
Ki, sa’yu shavkdin uchmokda bolu par kilur paydo.

Ogahiy **iyhom** san’ati xususiyatlaridan ham mohirona foydalangan:

Meni bemor o’lar holatga etganda ikki la’lin,
So’rub bildim alarning biri shakar, biri kavsardur.

Savol: Ogahiyning kuyga solingan mashhur g’azali kaysi va uning matla’si kanday?

Javob: “Ustina” radifli g’azali Ogahiyning mashhur g’azallaridan biridir. U ishk mavzusida, vasf va izhor uslubida bitilgan yakpora g’azaldir. Bu g’azal tanikli xonandalar (Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoshukurov va b.) tomonidan ko’shik kilib ijro etilgan. g’azal to’kkiz band, o’n sakkiz misradan iborat. g’azalning matla’si:

Mushkin koshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlam uchun “nas” keltirur “nun” e’tibor “sod” ustina.

O’yin shu tarzda davom etadi. Savollarga to’g’ri javob bergan guruh g’olib sanaladi.

6X6X6

Mazkur metodlarning adabiy ta’lim jarayonida foydalanish mumkin bo’lganlaridan yana biri 6X6x6 metodidir. Bu metoddan adabiy asarlar ustida ishlashda foydalanishda adabiyot o’kituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni okilona shakllantira bilish talab kilinadi. Bu metodda sinfdagi o’kuvchilar oltita-oltitadan guruhlarga bo’linadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e’lon kilinadi, o’kituvchi guruhning a’zolarini almashtiradi. YAngi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil koladi va o’z guruhining mavzu yuzasidan chikargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. YAngi guruh a’zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o’rganadilar, unga o’z munosabatini bildiradilar. SHu tarika kiska vakt ichida o’kuvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o’zlari tomonidan tahlil kilinadi va baholanadi.

“To’g’ri top” o’yini uchun ikkita plakat kerak bo’ladi. O’kituvchi birinchi navbatda biror makolning boshlanishini yozib ko’yadi, ikkinchisi esa tartabni o’zgartirgan holda makolning davomini yozib ko’yadi. O’yinni 5 sinflarda “Makollar” mavzusini o’rganishda ko’llash mumkin.

1. Qari bilganini...
2. Avval o’yla...
3. Otdan tushsa ham...
4. YAxshi topib gapirar...
5. O’z uying...

1. egardan tushmaydi
2. yomon kopib
3. pari bilmas
4. o'lan to'shaging
5. keyin so'yla

"Kim biladi?" o'yinida o'kuvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh a'zolari biror she'rdan parcha o'kishadi. Ikkinchi guruh a'zolari esa she'rning muallifini aniklashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a'zolari she'r o'kishadi. Birinchi guruhdagilar esa she'r muallifini topishadi. Har bir to'g'ri javob uchun yutukli kartochkalar berishadi. Bu o'yinni xohlagan shoirning lirikasini o'rganishda yoki dars jaryonida o'kuvchilarni zeriktirishga yo'l ko'ymaslik, kiziktirish maksadida ham o'tkazish mumkin. Masalan, 9-sinfda Navoiy lirikasini o'rganishda kuyidagicha foydalanish mumkin:

1-guruh:

Ul sanamkim, suv yakosinda paritek o'ltirur,
g'oyati nozuklikindin suv bila yutsa bo'lur.

2-guruh . Atoiy

Bu gulshan ichra yo'ktur bako guliga sabot,
Ajab saodat erur chiksa yaxshilik bila ot.

1-guruh. Navoiy

O'yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o'yin o'kuvchilarda she'riyatga nisbatan kizikish uyg'otadi. SHe'riyatga bo'lgan ijodiy yondashuvni o'stiradi, ifodali o'kishga malakalarini oshiradi.

Adabiyot darslarida bunday o'yin texnologiyalarini ko'llash, ulardan foydalanish juda katta samara beradi. O'kuvchilarning bunday darslarda ko'llaniladigan o'yin texnologiyalari orkali dunyokarashi kengayadi, faolligi kuchayadi, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi. Eng muhimi, adabiyot darsiga, badiiy adabiyotlarni o'kishga kizikish kuchayadi.

"Ertaklar olamiga sayohat" o'yini kuyi sinflarda o'tkaziladi. O'kuvchilar guruhlarga bo'linadi. Mustakil va sinfdan tashkari o'kish soatlarida kanday ertaklar o'kilgan bo'lsa(o'kuvchilar tomonidan) ertaklar nomi, kahramonlar ismi yoziladi. Qaysi kator yoki o'kuvchi ko'p yozsa engadi.

5-sinfda "Ertaklar olamida» ruknida «To'maris» rivoyati, Nazariy ma'-lumot: Rivoyat va afsona tushunchalari. «Uch og'a-ini botirlar» ertagi, «Susambil» ertagi. Nazariy ma'lumot: Ertaklar va ularning turlari. Sinfdan tashkari o'kish darslarida bu o'yindan foydalanish mumkin.

Ertaklar nomi	Qahramonlar nomi
"Sehrli uch so'z" o'zbek adabiy ertagi	Maksudxo'ja, xotini, besh kizi, to'rt o'g'li
Pirimkul Qodirovning "Najot" adabiy ertagi ertagi	SHahzoda Abusaid, podsho Kamolxon, vazir Zuhurbek, Sanobar, Ashur, uch og'ayni botirlar:To'lan botir, O'ktam botir, Kenja botir va boshkalar

O’yin darslari vositasida o’kuvchilarni mustakil fikrlashga, ijodkorlikka yo’naltiriladi. O’kuvchi o’zlashtirgan bilim va malakalariga tayanib o’yin darsi vositasida mustakil harakat kiladi, o’kuv topshiriklarini bajaradi. Ko’yilgan muammolarni echadi. YUkori sinflarda sahna asarlarini rollarga bo’lib o’kish ijro etish vositasida bahri bayt musobakalarini o’tkazish kabi dars shakllaridan foydalanish mumkin.

9-sinfda Zahriddin Muhammad Bobirning lirikasini o’rganishda kuyidagicha bahri-bayt shaklidan foydalanish mumkin.

1-o’kuvchi:

YOd etmas emish kishini g’urbatda kishi,
SHod etmas emish ko’ngilni mehnatda kishi,
Ko’nglim bu g’ariblikda shod o’lmadi, oh,
g’urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

2-o’kuvchi:

Ishkingda ko’ngil xarobdur, men ne kilay?
Hajringda ko’zum purobdur men ne kilay?
Jismim aro pechutobdur, men ne kilay?
Jonimda ko’p iztirobdur, men ne kilay?

YUkori sinflarda, ayniksa, xilma xil asar kahramonlariga xos portret kiyofalarini o’kuvchi ko’z o’ngida jonlantirish vositasida u kaysi asar kahramoni ekanini topish o’yinini olib borish mumkin.

Masalan, 8-sinfda YUsuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” dostonida kuyidagicha o’yin turidan foydalanish mumkin:

1. U benukson akl timsoli, vazirning o’g’li bo’lib. Davlat ishlarida emas, dunyo ishlarida akl, idrok bilan ish ko’radi. (O’g’dulmish)

2. U takvodor, zohid, davlatning karindoshi kanoat timsoli bo’lib. Foniy dunyoni o’tkinchi deb biladi. U dunyoviy ishlarning barchasi kerak, u hayotiy zarurat, lekin bu dunyo tuzilishiyo’lida umrini kurbon berish donolik belgisi emas deb biladi. (O’zg’urmish)

O’kituvchi yukoridagi fikrni bayon etib, kim ta’riflanganini so’raydi. O’kuvchilar esa o’kigan asari yuzasidan kimligini eslab topib aytadi.

Ma’lumki akademik lisey talabalariga ikkinchi boskichda Boburning hayoti va ijodini o’rganishga alohida e’tibor karatilgan. Bunday darslarda “SHoh va SHoir” nomi bilan ham o’yin mashg’ulotini uyushtirish mumkin.

Bunda birinchi guruh nomi “SHoh”, ikkinchi guruh nomi “SHoir” deb nomlanadi. Har bir guruhga berilgan nomidan kelib chikib savollar beriladi. “SHoh” guruhiga beriladigan savollar:

1. Boburning avlodlar shajarasini tuzing.
2. Boburning o’z yurtidan bosh olib ketish sabablarini ko’rsating.
3. Boburning Hindistonda amalga oshirgan obodonchilik ishlari.
4. Bobur va SHayboniyxonga kiyosiy tavsif bering.

“SHoir” guruhiga savollar:

1. Bobur kanday devonlar tuzgan?
2. Xazon yafrog’i yanglig’ gul yuzing hajrida sarg’ardim,
   Ko’rub rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrai zardim

matla'li g'azal tahlili va undagi sarik rangni ifodalash uchun ko'llangan so'z va so'z birikmalarini ifodalab bering.

3. SHoirning takdiri bilan bog'lik bo'lgan ruboiylaridan misollar keltiring va sharhlang.

4. Boburning ijodiy salohiyati va iste'dodiga baho bering.

Cavollar yozilgan kartochkalar o'kuvchilarga tarkatiladi. Dars jarayonida o'kuvchilar guruhlarning faolligiga karab baholanadi.

O'yin darslari mustakil fikrlashga, ijodkorlikka, faollikka undaydi. Bunday darslarning fanlararo alokasi hakida to'xtaladigan bo'lsak, u tarix (Qodiriyning "O'tgan kunlar" ida XIX asrdagi Buxoro, Qo'kon xonliklari ; tarixiy vokealar, sanalar), geografiya (Boburning "Boburnoma" sidagi geografik joy nomlari), psixologiya (ruhiyat tasviri), mantik, matematika, tilshunoslik kabi fanlarga chambarchas bog'lik.

Biror bir adabiy asarni o'rganishda, davrlarga sharh berishda, ma'lum asarda kamrab olingan tarixiy vokealarni o'kuvchilarga eslatishda, obrazlarni tahlil kilishda tarix faniga murojaat kilinadi. Asardagi ruhiyat tasvirini o'rganishda psixologiyaga, klassik adabiyot namunalarini o'rganishda falsafaga, mantikka, badiiy asar matnini tahlil kilishda tilshunoslik faniga murojaat kilinadi. Demak, o'kituvchi fanlararo alokadan foydalanib yozuvchi yashagan davr, kalamga olingan hayotiy hodisalar va inson shaxsi to'g'risida asosli, dalillangan ilmiy hakikatlarga tayanib ish yuritadi.

Tayanch so'zlar:

Texnologiya, inovasiya, nazariya, ifodali, o'yin, faol, kengaymok, she'riyat, adabiyot, kizikish, samaradorlik, o'stirmok.

Savol va topshiriklar:

1. Qanday o'yin texnologiyalarini bilasiz?

2.O'yin texnologiyalarining adabiy ta'limda tutgan o'rnini kanday baholaysiz?

3. O'yin darslarida fanlararo alokadan kanday foydalanish mumkin? Misollar keltiring.

4. Tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib o'yin texnologiyalarini amaldagi darsliklar asosida mavzuga bog'lab dars ishlanmasi tayyorlang.

Ma'ruza-7
Sayohat darslarini tashkil etish

Reja:

1. Sayohat darslari va uning turlari.
2. Sayohat darslarini tashkil etish.
3. Sayohat darslarining ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. Sobirov A.SH. Adabiyot mashhulotlarida maxalliy adabiy va madaniy materiallardan foydalanish: Ped.f.n. ... diss.av-ti. – T., 1995. – 23 b.

2. Xamroliev K.U Adabiyot o'kitish jarayonida adabiy o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish. Nomzodlik dis... avtoreferati. – T., 1993. – 22 b.

3. Usmonov J. Adabiyot muzeyi va dars. -- T.: O'kituvchi, 1987. – 88 b.

4. Xalilov F. YOzuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishda tasviriy san'at asarlaridan foydalanish. Til va adabiyot ta'limi, 1998, 2-son. 28-34-betlar.

Adabiyot darsining noan'anaviy shakllaridan yana biri adabiy ekskursiya darsidir. O'kuvchilarning mustakil ijodiy tafakkur kobiliyatini rivojlantirish maksadida ushbu usul ko'llanadi. Maktabda XIV-XIX asrlardagi hayot ifodalangan asarlarni o'kiganlarida, u davrdagi moddiy, ma'naviy hayot hakida to'lik tasavvurga ega bo'lmaydilar. Ularda shunday tasavvur hosil kilishga darsni ekskursiya usulida olib borish yordam beradi. Masalan: tarix muzeyiga, adabiyot muzeylariga sayohat uyushtiriladi. U erda o'kuvchilar o'tmish madaniy yodgorliklar-me'morchilik, haykaltaroshlik asarlarini, tasviriy san'at obidalarini o'z ko'zlari bilan ko'rganlaridagina xotiralarida yaxshi saklashlari mumkin. SHu o'rinda adabiyot darsining tarix bilan chambarchas bog'likligi yakkol namoyon bo'ladi. Tarix darslarida asosan o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti o'rganilsa, adabiyot darslarida aynan shu davrdagi adabiy muhit shoir va adiblar ijodi o'rganiladi.

Hamid Olimjonning kitobxonlarga yaxshi tanish "O'rik gullaganda" she'rini oladigan bo'lsak, ushbu asarni o'rganishda ham sayohat darslaridan foydalanishimiz mumkin.

Derazamning tagida bir tup
O'rik oppok bo'lib gulladi,
Novdalarni bezab g'unchalar
Tongda aytdi hayot otini.
Va shabboda kurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini...

SHe'rni o'kigan har bir kishi avvalo ilk bahorni, erta tongni ko'z oldiga keltiradi. Ushbu she'r o'tilayotgan paytda ham bolalarni tabiat ko'yniga olib chikilsa, o'sha erda she'rda keltirilgan tasviriy vositalar , o'xshatishlar izohlansa maksadga muvofik bo'ladi.

Biz yukorida aytib o'tdik XIV-XIX asr tarixini, adabiyotini o'rganayotgan davrda ayniksa adabiy ekskursiyalar muhim ahamiyatga ega. Biz bilamizki, adabiyot o'ktuvchisining vazifasi avvalambor o'kuvchiga odob-axlokni, vatanga muhabbat, yurtga sadokatli bo'lish kabi tuyg'ularni shakllantirishdir. O'kuvchilarning fan asarlarini puxta egallashlarida, fanlararo alokani mustahkamlashda; o'lkamiz o'tmishini chukur o'rganish va shu asosda bugungi kun vokea-hodisalarini teran mushohada kilishimiz lozim.

Adabiy ekskursiyalarni tashkil etishda ota-onalar bilan, maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda Samarkad, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayohat uyushtirilsa. O'kuvchilarning tarixiy obidalarni o'rganishga, ularni asrashga bo'lgan rag'bat yanada oshar edi.

Adabiy ekskursiya deganda fakatgina ko'rib kaytish emas, balki o'kuvchi ko'rganlarini gapirib berishi, sinfda atroflicha muhokama kilinishi zarur. Bu o'kituvchidan ham o'ta bilimdonlik va tashkilotchilikni talab kiladi. O'kituvchi o'kuvchilarni kiziktirgan savollarga javob bera olishi, ularni atroflicha bahslar utkazishga jalb kila olishi zarur.

Alisher Navoiyga bag'ishlangan darsni o'tishda o'kuvchilarni muzeyga olib borish yoki muzey eksponatlarini namoyish kilgan ma'kul. Bunda Alisher Navoiyning bolalik va yigitlik chog'lari hakida rassom A.Siglinsevning "Alisher maktabga borgan payt", B.V.Sestinskiyning "Alisher Navoiy "Mantik-ut tayr"ni o'kimokda", A.Siglinsevning "Mashhad. Alisher Abulkosim va Husaynga she'r o'kib bermokda" kabi rasmlardan foydalanib o'kituvchi o'kuvchilarga jonli ma'lumot berishi mumkin.

Oybekning "Navoiy" romaniga ishlangan "Alisher Navoiy" portretida shoirning 30 yoshlardagi payti - uning muhrdorlik vazifasiga tayin etilganlik yillari tasvirlangani hakida ma'lumot berib, bunda o'kituvchi Navoiy kiyofasini Oybekning "Navoiy" ramanidagi kuyidagi parcha asosida tasvirlashi mumkin:

"SHoirning boshida kuchli ko'k takyaga sillik o'ralgan ko'rkamgina salla. Egnida odmi shohi to'n, ustida yalang ko'ng'ir movut chakmon… Navoiy o'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, yoshi ulug'dek ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishik, barmoklari uzun va nafis. Kora va kiska sokolli xushbichim miyiklari tekis va sillik; yonoklari chikikrok; kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy kudrat va engil, go'zallashtiruvchi ir xorg'inlik jilvalanadi. Qobarikrok kovoklari ostidagi kiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga kandaydir iroda kuchi ifodalangan".

O'kituvchi xuddi adib tasvirlagan holat musavvir kalamida o'z ifodasini topganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy hayotining so'nggi yillari hakida ma'lumot berganda Navoiy portretini birinchi bo'lib ishlagan musavvir Kamoliddin Behzodning asari bizgacha etib kelmaganligi sababli Navoiyning Mahmud Muzahhib tomonidan yaratilgan portretidan foydalanish maksadga muvofikdir.

Mazkur portretda shoirning keksalik davri tasvirlangan. U hassaga tayangan holda bir oz egilib turibdi. Ilm-ma'rifat, hakikat va adolat uchun kurashlarning shoirga ta'siri uning okargan sochlaridan, kiyofasidan sezilib turibdi. Ammo shoir jismonan charchagan bo'lsa ham, ruhan tetik ko'rinadi. Biroz chimirilgan koshlari, tiyrak nigohi. Sezilar-sezilmas tabassum bilan bokib turishi jonli va hayotiy ifodalangan.

Demak adib hayoti va ijodini o'rganishda muzeylarga sayohat uyushtirish, u erdagi portret va asarlar, ko'rgazmalarni bevosita adib hayoti bilan bog'lagan holatda o'kuvchiga etkaza olish o'kituvchi mahoratiga bog'lik.

Umuman, g'afur g'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi adiblarimiz ijodini o'rganayotgan paytda ham adabiy ekskursiya usulidan foydalanish maksadga muvofikdir. Masalan, g'afur g'ulom ijodini o'rganish jarayonida o'kuvchilarga shoir hakida ma'lumot beriladi va shoir uy-muzeyiga ekskursiya uyushtiriladi. O'kuvchilarning u erda shoir hakida yanada to'larok ma'lumot olishga muvaffak bo'ladilar. CHunki shoirning esdaliklari, suratlari, shoir foydalangan buyumlari, hattoki uning chalgan tanburi-yu, o'kigan "Qur'on" kitoblari o'kuvchida umrbod esda koladigan tuyg'uni paydo kiladi. Bu adibga bo'lgan mehr va hamnafaslik tuyg'usidir.

Umuman, adabiy ekskursiya darslari o'kuvchida katta kizikish uyg'otadi. Darsni nazariy jihatdan o'rganib turib, uni amaliyotga tatbik kilsagina samarali natijaga erishish mumkin.

Tayanch so'zlar: Ekskursiya, musavvir, muzey, tabiat, kadamjolar, tarixiy, obida, uyushtirmok.

Savol va topshiriklar:

1. Ekskursiya darslari qanday tashkil qilinadi?
2. Dastur va darslik materiallari asosida adib uy-muzeylariga sayohat darslarini tashkil etish yuzasidan reja-konspekt tayyorlang.
3. Tabiat qo'yniga saayohat qilish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlang.
4. Adabiyot muzeyiga sayohat uyushtirish yuzasidan sayohat rejasini tuzing.
5. "Sayohat taassurotlari" mavzusida bahs-munozarali savollar tuzing.

Ma'ruza-8
Sinfdan tashkari mashg'ulotlarni tashkil etish

Reja:

1. Adabiy ta'limni rivojlantirishda sinfdan tashkari mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati.
2. Adib hati va ijodini o'rganishda adabiy kecha va tadbirlar o'tkazish.
3. Ko'rgazma va vistavkalar tashkil etish.
4. Adib muzeyiga sayohat uyushtirish.

Adabiyotlar:

1. G.Muxamedjanova. Darsdan tashkari mashg'lotlarda rusiyzabon o'huvchilarning o'zbekcha nutkini o'stirish metodikasi (5-9-sinflar misolida). Ped.fan.nomz... dissertasiya. – T., 2003. – B. 89-90.
2. Q.Husanboeva. Muhammad YUsuf ijodidan bir dars. Toshkent, 2004, 3-13-betlar.
3. Matjon S. Kitob o'kishni bilasizmi? Kitobxon bilan mulokot. – T: O'kituvchi, 1993. – 114 b.
4. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustakil ishlar: O'kituvchilar uchun metodik ko'llanma. - T: O'kituvchi, 1996. – 208 b.

Milliy ma'naviyat, milliy istihlol g'oyalari tarbiyasini yuhori saviyada tashkil etishda darsdan, maktabdan tashhari ishlarning ahamiyati benihoya katta. Aynihsa, turli tadbirlar, xususan adabiy kechalar chog'ida so'zlanadigan ma'ruzalarni, o'huvchilarning chihishlarini mazmunan boy, badiiy yuksak saviyada uyushtirish muhim o'rin tutadi. Bunday tadbirlarni uyushtirish uchun tuziladigan ssenariylarning pishik bo'lishiga e'tiborni kuchaytirish talab etiladi. Bugungi kunda Oybekning hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish keng huloch yoydi. Ushbu tadbirlarning ssenariysi muayyan izchillikda amalga oshiriladigan ishlarni o'z ichiga oladi. Birinchi navbatda tadbirdan oldin o'huvchilar ishtirokida ko'rgazma tashkil etish va adabiy ekskursiya uyushtiriladi. Ko'rgazma ham, adabiy ekskursiya ham o'huvchilarning fikrlash doirasini yanada kengaytiradi, kizikuvchanligini oshiradi. Adabiy kecha esa o'kuvchilarning adib ijodi yuzasidan yakunlovchi tadbir sifatida o'tkaziladi.

Kitoblar ko’rgazmasini kuyidagi kabi turli xil ruknlar ostida tashkil etish mumkin:

1. Oybek yaratgan she’riy asarlar olami (lirik she’rlar to’plamlari asosida), dostonlari.

2. Oybek o’zbek nasri ustasi (hikoya, hissa, roman).

3. Oybek – tarjimon (tarjima asarlari).

4. Oybekning ilmiy karashlari (Navoiy ijodi yuzasidan olib borilgan tadhihotlari bo’yicha).

SHuningdek:

1. “O’zbek she’riyati durdonalari”.

2. “Nasriy asarlarni o’king”.

3. “Oybek asarlari rus tilida” (5 jildlik nashri).

SHu kabi ko’rgazmalar Oybekning tug’ilgan kuni sanasi munosabati bilan tashkil kilinishi mumkin.

Oybek tavalludi munosabati bilan *devoriy gazetalar* chikarish, ularga ilova kilib fotogazeta ham tayyorlash mumkin. Unda Oybek hayoti va ijodi yuzasidan to’garakda tayyorlangan ishlardan lavhalar beriladi, Oybek hayoti va ijodi yuzasidan tanikli kishilar bilan uchrashuvlar (masalan, adabiyotshunos olim Naim Karimov, adibning o’g’li Bek Toshmuhammedov kabi), ekskursiyalar, ayrim dikkatga sazovor vokealarga bag’ishlangan makolalar chikariladi. Adib nomi bilan bog’lih Termiz davlat pedagogika instituti binosining rasmi yoki adib faoliyat ko’rsatgan tashkilotlar suratlari joylashtirilishi mumkin.

Fotogazeta fotosuratlar hamda ularga tegishli sharhli yozuvlardan iborat bo’ladi. Fotomontaj chikarish uchun esa illyustrativ material sifatida jurnallar, otkritkalar, plakatlar va boshka turdagi fototasvirlardan foydalanish mumkin. Bunday rasmlar talabalarning adib ijodiga doir olgan bilim va malakalarini yanada mustahkamlaydi.

Adabiy ekskursiya tashkil etishdan oldin o’kituvchi asosiy maksadni belgilab oladi. Oybek hayoti va ijodini o’rgangandan keyin Oybek uy muzeyiga ekskursiya uyushtirish mumkin.

Hovlida joylashgan Oybek haykalining o’ziga karab adibning hayot yo’lini esga olish, hatto Oybekning shu holatini yorkin bo’yoklarda tasvirlab berish ham o’huvchilarni hayajonga soladi. Ayniksa, adibning og’ir kasalga chalingan damlari xuddi shu hovlida o’tgan, u gapirolmasdan, fakat o’ylari bilan shu hovlini kancha marotaba aylangan kezlarini his etish murakkab kechinmalar tarzida kechadi. Bu o’rinlarda yirik adabiyotshunos olim Naim Karimovning “Oybek” asarida keltirilgan ushbu she’rni eslash o’rinlidir:

Xastamen... fikrga, tuyg’uga to’lib -
Oy menga hamkadam – sekin yuramen.
Sog’aysam bir kuni yozamen to’yib,
Hislarga kalbimni ko’shib yozamen.

Kechalar yururmen telbaday horib,
Boshimda oy borur – menga hamkadam,
Xayollar uchadi mash’alday yonib,
To’yib yozajakman bir kun sog’aysam...

Naim Karimov aytganidek: “Bu ijodga behad tashna, ammo og’ir va uzok yillar davomida ijod etish baxtidan mahrum bo’lgan kalbning sokin faryodi edi”. Bunday ma’lumotlarni Zarifa Saidnosirovaning xotiralari asosida Oybekning xarakteri xususidagi, oila a’zolari hakidagi ma’lumotlarni bayon etish mumkin. Oybekning insonlarga, ayniksa, bechorahol kambag’al oilalarga kilgan yaxshiliklarini eslash ham o’tganlar ruhini shod kiladi va o’kuvchilarga ibrat namunasi bo’lib xizmat kiladi. Oybekning o’zi aytganidek:

Bulutday kezsa xalk ichida shoir,
Xotirasi kuyosh kabi koladir.

Oybek haykaliga gullar ko’yib, shoir hakidagi xotiralarni eslash bilan birga she’rlaridan namunalarni tinglash o’kuvchi ruhiyatiga kuchli ta’sir etadi va bir umrlik taassurotlar uyg’otadi.

SHoir uy muzeyi tomosha kilinadi. Bunda o’kituvchi Oybek hakidagi kizikarli ma’lumotlarni etkazib beradi. Adib yaratgan asarlar hakida, bularning ba’zilari tufayli unga kanchalar malomat toshlari yog’ilgani to’g’risida so’zlanadi. Lekin o’sha asarlar adib ijodining yutug’i hisoblanib, yukori baholangan. SHulardan biri “Navoiy” romanidir. Oybekning umr yo’ldoshi Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” kitobida keltirishicha: “U butun umri bo’yi Navoiy hakida o’yladi, Navoiy hakida yozdi. Uning bu satrlari bejiz bitilmagan:

Tarix so’kmoklari izimdan cho’tir,
Har bir xon shivirlar: “Bir lahza o’tir...”
“Qushlar tili” piri yurakda tilak,
Izlayman marvarid – ko’limda elak.

Oybek butun umri davomida ana shu elak bilan Navoiy olamidan marvaridlar terdi”.

SHu kabi ma’lumotlar adib kutubxonasini kuzatish jarayonida jo’shib hikoya kilinadi.

Sayohatdan kaytgandan keyin talabalarning u hakdagi taassurotlari tinglanadi yoki taassurotlari asosida yozma topshiriklar beriladi. Bunda insho mavzusi berilib, Oybek tavalludiga bag’ishlangan tadbirda “Insho tanloviga” yoziladigan insholar ko’rigi o’tkaziladi. Tanlov natijalari tadbir oxirida e’lon kilinadi.

Oybek asarlari bo’yicha sahnalashtirilgan spektakllar, videofilmlar o’kuvchilar bilan birga borib ko’rilsa, ko’pchilikning ulardan bahramand bo’lishiga va asar yuzasidan mushohada yuritishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Oybekning hayoti va ijodining turli kirralari bo’yicha viktorinalar, bellashuvlar, bahs-munozaralar o’tkazish ham maksadga muvofikdir.

Bunday sinfdan tashkari ishlarni har bir adib yoki mutafakkir hayoti va ijodi yuzasidan tashkil etish mumkin.

Ayniksa, ilm maskanlarida “Ma’naviyat kunlari”ning tashkil etilishi ham o’kuvchi-talabalarni ulardan yiroklashib ketgan sahna asarlarini, hali ko’rib ulgurmagan, vakt topmagan shoir va adiblarning uy-muzeylarini, ma’naviyat kadamjolarini tomosha kilishga undab turadi.

Xullas, kitob o’kish kamaygan bir sharoitda tanikli yozuvchi va adib Oybekning hayoti va ijodiy faoliyati hakida o’kuvchi-talabalarda keng tasavvur hosil kilish, shu orkali ularni milliy ma’naviyat, milliy istiklol g’oyalari ruhida tarbiyalash ishlarida

oldindan puxta tuzib olingan ssenariy asosidagi darsdan, maktabdan tashkari tashkil etiladigan tadbirlar, xususan, adabiy kecha, ekskursiyalar, ko'rgazmalar muhim o'rin tutadi.

Tayanch so'zlar: Ssenariy, ko'rgazma, adabiy kecha, insho tanlovi, aktyor, illyutrativ materiallar, muzey, sayohat, xotiralar,

Savol va topshiriklar:

1. Sinfdan tashkari mashg'ulotlar qanday tashkil qilinadi?
2. Oybek hakidagi tavsiyalardan foydalanib o'zingiz xohlagan adibingiz hakida ma'lumotlar to'plang.
3. Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab tadbir ssenariysi tayyorlang.
4. Abdulla Qahhor uy-muzeyiga sayohat tashkil kiling.

Ma'ruza-9

N**oan'anaviy darslar**

Reja:

1. Noan'anaviy dars tushunchasi, uning mohiyati, maqsad va vazifalari.

2. Baxs-munozara darslarini tashkil etish.

3. Teatrlashtirilgan darslarni tashkil etish metodiksi (Otabek, Kumush, Zaynab va xozirgi yoshlar mavzusi msiolida).

Tayanch so'zlar

Bahs-munozara darslari, muammoli savol, evristik usul, maqbul, nomaqbul.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov "*YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi*".
-T., "O'zbekiston" 1997 yil 5-jild.

2. A.Zunnunov, N.Xotamov, J.Esonov, A.Ibragimov. *"Adabiyot o'qitish metodikasi"* –T, "O'qituvchi" 1992 yil.

3. Boqijon To'xliev *"Adabiyot o'qitish metodikasi"* -T, "YAngi asr avlodi" 2006 yil.

4. M.Mirqosimova *"Adabiy ta'lim metodikasi"* –T, 1993 yil.

Skarabey texnologiyasi.

Skarabey texnologiyasi - interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi.

Bu texnologiya o'quvchi-talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, faol ijodiy ishlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J.o', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya aoslari. T.: "O'kituvchi" 2004 y.
2. Usmonova K. Adabiy ta'limda ilKor pedagogik texnologiyalar 1-kism. T.: 2006 y.

3. Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texgologiyalar 1-kism. T.: 2006 y.
4. Mirkosimova M. Badiiy asar tahlili. O’kuv ko’llanma. T.: 2007 y.
5. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta’lim tizimida o’zbek adabiyotini o’rganish metodikasi. T.: “Fan” 2007 y.
6. Husanboeva Q. Adabiy ta’limda mustakil fikrlashga o’rgatish asoslari. T.: “Uzinkomsentr” 2003 y.
7. SuyunovH. Adabiyot darslarida savol – topshiriklar ustida ishlash. T.: 2004 y.
8. Bahod ir Karim. Abdulla Qodiriy: tankid, tahlil va talkin. T.: “Fan” 2006 y.
9. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustakil ish lar. T.: “O’kituvchi” 1996 y.

Ma’ruza-10

Mavzu:lirik asarlarni o’ganishda yangi pedagogik texnologiyarning o’ni va ahamiyati.

Reja:

1.Lirik asarlarni janr xususiyatiga ko’ra o’rganish.
2.Lirik matnni tahlil qilish.
3.Lirik asarlarni o’rganishda ifodali o’qishning o’rni va roli.
4.Janr haqidagi fikrlar.

Tayanch so’zlar: Janr, poetik matn, lirika , lirik qahramon, tuyg’u, ifodali o’qish

Adabiyotlar:

1. Jamol kamol. Lirika. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik.2-tom
2. Adabiy tarixiy jarayon.t.”fan”1979
3. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.T. O’zbekiston 2002
4. Qurbonov D . Adabiyotshunoslikka kirish.t. A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi nashriyoti”2004
5. Shukurov N.Xotamov N.Xolmatov Sh .Maxmudov M. Adabiyotshunoslikkakirish. T.”O’qituvchi” 1979

Lirik asarlarni o’rganishda Yangi pedagogik texnologiyalarning O’rni va ahamiyati

Badiiy adabiyot ilmiy adabiyotdan hayot haqiqatini jonli va jozibali tasvirlashi bilan keskin farqlanadibadiiy asarlar 3xil bo’ladi:

1.lirik asarlar(she’rlar, ruboiylar,g’azal, tuyuq , qo’shiq muxammas fard qit’a,qasida, musamman va boshqalar)

Lirik asarlarda voqelik ayrim shaxslarning kechinmalari, o’y fikrlari,asosida ko’rsatiladi.

Lirika mazmun mohiyatiga ko’ra 2 xil bo’ladi:

A)intim lirika- shoirning ruhiy kechinmalari va hissiy olami aks ettiriladi.

B)ijtimoiy lirika-real hayotda ro’y bergan voqea-hodisalar tasvirlanadi.

Lirik asarlar va ularni o’ rganish boshqa turdagi

asarlarni o’rganishdan farq qiladi.

Lirik asarlar hajm jihatdankichik, mazmunansiqiq bo’ladi. Lirik asarlarning mazmundorligi ,bo’yoqliligi, va ayniqsa emotsionalligi ularni o’qishga alohida ahamiyat berishni talab qiladi. Lirik asarlarni o’qishda shu o’qish orqali uning o’ziga xos xususiyatlarini, shoirning his-tuyg’ularini, umid-orzularni aks ettirishga erishish zarur. O’qish mashg’ulotlarida she’rning mazmuni, ohangi, his-tuyg’uni o’quvchi-talabalar sezishlari, shoirning yyurak to’lqinlariga sherik bo’lishlari kerak. Shundagina she’rning mohiyati echiladi. Shoirning maqsalarini o’qish orqali his qilish lirikaning ustida ishlashning asosiy shartidir.

Lirik asarlarni o’rganishda asosiy ikki narsaga: badiiy ifodali o’qish texnikasini egallashga va she’rning badiy til xususiyatlarini tahlil qilish masalasiga e’tibor brish kerak.

Badiiy adabiyot, umuman, san’at asarlarining inson ruhi tafakkuriga ta’siri sababi nimada ekan?

Bu savolga javob topish tushanarliroq bo’lishi uchun, badiiy va ilmiy adabiyotni taqqoslab ko’rish lozim.

Bilamizki, umumta’lim maktablarida “Tabiatshunoslik”, “Geografiya” singari o’quv fanlari o’tiladi. Ularda kecha-kunduz, uning eng go’zal va so’lim fursati bo’lmishtong to’g’risida, yumaloq er sharini nurlari bilan yorituvchi quyosh haqida bir talay ma’lumot lar beriladi.

Quyosh bo’lmasa Erda hayot bo’lishi mumkin emasligi aytiladi. Bu ma’lumotlar o’quvchilarning aqliy saviyasi yuksalishiga ta’sir qiladi. Ular tufayli bolalar kecha-kunduz, tong va boshqalar haqida oldin bilmagan narsalaridan xabardor bo’ladilar. Ayni vaqtda, o’quvchlar tong payti tabiat juda go’zal bo’lishi haqida ham tushunchaga ega bo’ladilar.

Lekin bu bilim va axborotlar bolalarning aqlini boyitib, tafakkurini o’stirsa ham, hissiyotlariga, tuyg’ulariga deyarli ta’sir qilmaydi.

Rauf Parfining “Tong otmoqda...” deb nomlangan she’rida bir parchani o’qib ko’raylik:

Tong otmoqda. Tong o’qlar otar,
Tong otmoqda, quyosh zambarak.
Yaralangan Yer shari yotar,
Boshlarida yashil chambarak.

Shoir tong otishi qanday bo’lishini batafsil tasvirlab, nima ochun shunday bo’lganligini tushuntirib berayotgani yo’q, mavjud hayotiy holatdan, go’zal badiiy manzara yaratmoqda. Shoir ting otish jarayonini juda go’zal tasvir etadi. O’quvchini ham tongning chindanda go’zal otishiga ishontiradi.

Quyoshning zambarak “o’qlar” otishi, o’sha nurlardan Yerning yaranishi, va bu yaralanish tufayli o’lim emas, balki boshlarida yashil chambarak – hayot mavjud ekanligi juda ham o’ziga xos tarzda ifodalangan.

Abdulla Oripov “Kolumbda bor alamim manim, O’zbekiston vatanim manim” – der ekan, bu orinda Amerika qit’asi mavjud ekanini Kolumbdan bir necha asr avval o’zbek olimi bashorat qilib ketganini poetik ishora va bu ilmiy-tarixiy haqiqatga shoirona munosabat hamda Beruniyga vatandoshlaridan

faxrlanish, g’ururlanish tuyg’usi bor.bunday misralar kuchli estetik ta’sirdan tashqari, kitobxonni ma’rifiy jihatdan boyitadi.

Yoki siz vatanparvarlik mavzuiga bag’ishlangan ikkita she’r o’qidingiz. Ya’ni ikkovining mavzui birdek dolzarb. Birinchisi sizga mutlaqo ta’sir etmadi, tuyg’ularingizni uyg’otmadi. Ikinchisidan esa behad hayajonlandingiz, vatanga mehringiz ortdi, shu vatanga munosib farzand bo’lish tuyg’ularingiz yanada mavjlandi.bu, sherdagi badiiy mukammallik tufaylidir. Demak, har qanday, hatto eng dolzarb mavzu ham faqat go’zal, yuksak saviyada, mukammal ravishda o’z ifodasini topgan taqdirdagina muhim ahamiyat kasb eta oladi.

Lirikada qahramonning ichki kechinmalari hayotning go’zal va xunuk tomonlari aks ettiriladi. Lirik sherlarda yozuivchi o’zi to’g’risida, o’zining xayol va o’ylari, orzu istaklari, hissiyotlari va boshqa odamlarga, tabiatga bo’lgan munosabatlari haqida gapiriladi.

Lirik tur janrlarining asosida ham inson hayoti, muhabbati va nafrati, sevinchi va iztirobi o’zining badiiy ifodasini topadi.

V-IX sinflarda lirik asarni organishning asosiy usuli o’qituvchi va o’quvchining ifodali o’qishidir.

Ifodali o’qish bilan o’quvchi sherda shoir tasvirlagan voqea, obraz haqida tasavvurga ega bo’ladi. Bunga u har bir so’z, misra mazmuni chuqurkshtirish orqali erishadi. Sheriy asarlar turli shaklda tahlil qilinadi: aniq reja asosida ifodali o’qiladi, ayrim so’z misralarga izoh beriladi, obrazlar taqqoslanadi, suhbat tashkil qilinadi.

X-XI sinflarda lirik asar tahlili turli turli usulda bo’lishi mumkin. Tahlil davomida o’quvchlar sher to’g’risidagi o’z shaxsiy fikrlarini ham bayon qiladilar.

A. Oripov “Temir odam” sheriga “Temir odam” deb nom qo’yganligini izohlash.

Ma’lumki, A. Oripovning bu sherida murakkab matematik tenglamalarni oson yecha oladigan , elektron hisoblash mashinalari bilan ikkilanmay muomalada bo’lish iqtidoroga ega bo’lgan shaxsning yig’layotgan bolaga befarq qarashi mumkinligi va bunday odmlarni “Temir odam” deb atash lozimligi ko’satiladi. O’qituvchi bu o’rinda o’z so’zida muqim turadigan, so’zi bilan amali mos keladigan temir irodali odamlarni xalq ijobiy ma’noda Temir odam deb atashini esga soladi. A. Oripov esa o’z sherida o’zgalar g’amiga befarq qarovchi hissiz, bag’ritosh odamlarga nisbatan “Temir odam” atamasini qo’llagan.

Ma’lum bo’ladiki, bitta so’z birikmasi ikki vaziyatda tamomila zid ma’nilar anglatishini o’quvchlarga tushuntirish imkoni paydo bo’ladi.

Ma’ruza-11
Dramatik asarlarni o’rganishda pedagogik texnologiyalardan faydalanish.

Reja: 1. Dramatik asarlarning janr xususiyatlariga doir ma’lumot.

2. Dramatik asarlarni o’rganishning o’ziga hos xususiyatlari.

3. Dramatik asarlarni o'rganishda saxna bezaklari, muallif remarkalarining o'rganish.

Tayanch so'zlar: Janr, muallif nuqtai nazari, ong, idrok, monolog, dialog, remarka, pauza, parda, ko'rinish, proza, poeziya, ohang, badiiy tasvir, konflikt.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Zunnunov va boshqalar *"Adabiyot o'qitish metodikasi"* –T, "O'qituvchi" 1992 yil.
2. B.Imomov, Q.Jo'raev, Q.Xakimova *"O'zbek dramaturgiyasi tarixi"* -T., "O'zbekiston" 1995 yil.
3. I.Sultonov *"Adabiyot nazariyasi"* -T, "O'qituvchi" 1980 yil.
4. B.To'xliev *"Adabiyot o'qitish metodikasi"* –T, *"YAngi asr avlodi"* 2006 yil.

Asar 1914 yil Samarqandda qo'yilganda "Oyna" gazetasi bunday yozgan edi.

"Xalq nixoyat ko'p kelib, chipta etmagani va joy yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi...

Uch so'm berib, tikka turmoqqa ham rozilar bo'ldi".

"Padarkush" dramasining asosini ma'rifatparvarlik tashkil qiladi.

Jamiyatdagi barcha badbaxtlik, barcha baxtsizlik zamon talab qilayotgan ilmlarni egallamaslik tufaylidir.

Jaxolat, madaniyatsizlik sababi ham mana shunda – ilmga, ziyoga, ma'rifatga bepisandlik bilan qarashda, demoqchi bo'ladi muallif butun asar davomida.

Boyning o'g'li Toshmurod qanday odam ekani drammaning boshidayoq bilinadi. Xonada mexmonlar bo'lishiga qaramay, odobsizlarcha, na salom bor, na alik, hovliqqancha kiradi-yu, tomoshaga borajagini aytib, otasidan pul so'raydi. Otasining vaqtliroq qayt, yomon joylarga borma, - degan gapiga javoban Toshmurodning "ko'p gapirasiz-da" deb beandishalik va o'ta beodoblik ko'rsatishi tomoshabin yoki kitobxonda darxol salbiy munosabat uyg'otadi.

Dramada Toshmurodning eski maktabga ham yangi maktabga ham bormasligini bilib olinadi. Xolbuki, u 16 yoshlar atrofida. Demak, takasaltang. Asarning ichiga chuqurroq kirib borgan sari, aslida bolaning otaga, otaning bolaga o'zaro mos, bir-biriga mutanosib ekanini idrok etamiz.

Ota dunyoning jamiki izzatini faqat boylikda deb tushunadi.

- Boyning o'g'li Toshmurod "Padarkush" nomini olishini sababi nimada edi?

- Axir u otasini o'ldirmadi-ku?

- Ne sababki, bu badbaxt bola "ota qotili" degan nomini oldi?

Birgina javob, ya'ni "ilmsizlik"dir.

Dramatik asarni ham o'qib, saxnada ko'rib, yangi pedagogik texnologiya asosida "Aqliy xujum" metodidan foydalanish mumkin.

Dramani rollarga bo'lib xam o'qitish yaxshi ijobiy samara beradi.

1-gurux "Bojalar" guruxi (3-parda)

Boyni o'ldirish jarayoni ijro etiladi.

2-gurux “Ovsinlar” guruxi
4-manzarani rollarga bo’lib ko’rsatib beradi.
“Debat” usulida ham o’tish maqsadga muvofiq bo’ladi.
1. “Bajalar” guruxi “Toshmurod ota qotili”
2. “Ovsinlar” guruxi” “Toshmurod ota qotili emas”.

Ma’ruza-12
Matn ustida ishlash orqali mustaqil ishlarni tashkil etish

Reja

1. Kirish mashg’ulotlari jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish.
2. Badiiy asarni o’qish.
3. Badiiy asarni tahlil qilish.
4. Yakunlovchi mashg’ulotlarni tashkil **etishda mustaqil ish.**

Tayanch so’zlar:

Matn, izohli lug’at, hujjat, umrboqiylik, umid, hayot, mutoala, aqlni peshlash, hissiyotni boyitish.

Adabiyotlar:

1. O’zbek tilining izohli lug’ati. M. “rus tili” nashriyoti, 2-jild 1981 yil, 156 bet
2. Dolimov S, Ubaydullaev H, Ahmedov Q. “Adabiyot o’qitish metodikasi”. “O’qituvchi” T. 1967 239-bet

Ma’ruza-13
Savol – topshiriqlar bilan ishlash — mustaqil ishlar tashkil qilishning muhim omili.

Reja :

1. O’quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko’nikma va malakalari qaysi davrdan boshlanadi ?
2. Bu borada adabiy ta’lim zimmasiga qanday mas’uliyat yuklatilgan ?
3. Savol – topshiriqlar ustida ishlash usullarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish.

Tayanch so’zlar :

— bilim , ko’nikma , malaka , mas’uliyat , shakl , o’quv topshiriq , mazmun , izohli o’qish , ilmiy dunyoqarash , tamoyil.

Adabiyotlar

V.V. Golubkov Metodika predpodovaniya literaturo’. M. , Uchpedgiz. 1962. Str. 302.